



## O'QUVCHILARNING YOZMA SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA YOZMA ISHLARNING AHAMIYATI

**Abdusattorova  
Oyjamol  
Farxodjon qizi**

*Qo'qon Universiteti Ta'lim kafedrası  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi  
oyjamolabdusattorova@gmail.com*

Abstract

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda foydalaniladigan ish turlari: diktant va uning turlari, bayon, insho va ulardan qanday foydalanish haqida tavsiyalar berilgan.

**Keywords :** imlo, grammatik ko'nikma, bayon, diktant, insho, qayta hikoyalash, ta'limiy diktant, tekshiruv diktant.

### Kirish

O'quvchilarning yozma nutqini oshirishda yozma ishlar muhim ahamiyatga ega. Yozma ishlar nafaqat grammatika va imlo ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki fikrlash va mantiqiy izlanishlarni ham o'rgatadi.

To'la savodxonlikka erishishning muhim omillaridan biri o'quvchilarning nutq madaniyati ustida ishlash, ularning og'izaki va yozma nutqini rivojlantirib borishdir. Shuning uchun 1-4-sinf o'quvchilarini o'qitish mobaynida bir turdagi yozma ishlar bilan chegaralanib qolmasdan, yozma ishlarning barcha turlaridan foydalanish muhimdir. Bunda o'quvchilarning yozma nutqlari keng ko'lamda va xilma-xil ravishda bayon eta olish qobiliyatlari rivojlanadi.

- Fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi: Yozma ishlarni bajarish o'quvchilarga o'z fikrlarini aniq va mantiqiy ravishda ifodalashga yordam beradi. Bu jarayon fikrlashning tizimli va chuqur bo'lishini ta'minlaydi, shuningdek, o'quvchilarga biror masala yoki muammoni tahlil qilishni o'rgatadi.

- Imlo va grammatika ko'nikmalarini yaxshilaydi: Yozma ishlar o'quvchilarga tilni to'g'ri qo'llashni, imlo va grammatikani o'rganishni taklif qiladi. Yozma mashqlar orqali ularning til bilan ishlash ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi.

- Ijtimoiy va professional yozish ko'nikmalarini oshiradi: Yozma ishlar o'quvchilarga turli vaziyatlar uchun to'g'ri va aniq yozishni o'rgatadi, masalan, rasmiy

maktublar, insholar, hisobotlar va boshqalar. Bu esa ijtimoiy va professional kommunikatsiyada muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi.

- Ijodkorlikni rivojlantiradi: Yozma ishlar o'quvchilarga o'z fikrlarini yaratishda va yangi g'oyalarni rivojlantirishda erkinlik beradi. Ayniqsa, insholar va esse yozish o'quvchilarning ijodkorligini oshirishga xizmat qiladi.

- Tilni boyitadi: Yozish jarayoni o'quvchilarga yangi so'zlarni o'rganish, sinonimlar va antonimlar kabi tilni boyitadigan elementlarni o'zlashtirish imkonini beradi. Bu esa nutqning ifodali va boy bo'lishiga olib keladi.

- Matnni strukturaviy ravishda tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantiradi: Yozma ishlar o'quvchilarga matnni to'g'ri va aniq strukturalashni o'rgatadi. Ular paragraflar va bo'limlar orqali fikrlarni tartibga solishni, o'zlarining fikrlarini yanada lo'nda va tushunarli tarzda ifodalashni o'rganadilar.

- O'z fikrlarini mustahkamlash: Yozma ishlarni yozishda o'quvchilar o'z fikrlarini yozma ravishda ifodalash orqali, ularni yaxshiroq tushunishga va mustahkamlashga imkon topadilar. Bu jarayon ularning fikrlarini aniq va ishonchli tarzda ifodalashni o'rgatadi.

### **Asosiy qism**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yozma nutqini rivojlantirishda diktan, bayon, insho kabi ish turlarining vazifasi juda ham muhimdir. Masalan, o'quvchilarga diktant yozdirish davomida o'qituvchi diktantni og'izaki aytib turadi, o'quvchilar esa so'zning imloviy qoidalari va husnixatga rioya qilgan holatda yozib borishadi.

Bayon yozishda o'qib berilgan na'munaviy matnni ma'lum tayyorgarlikdan so'ng qayta yozishadi. Ona tili va o'qish darslarida bayon yozish jarayonidagi matn ustida ishlash, o'qilgan matn yuzasidan rejalar tuzish va shu rejalar qaytadan bayonni mazmunini ushlab qolgan holatda yoki ijodiy fikrlari bilan boyitib yozishlari o'quvchilarning ham mantiqiy ham yozma nutqlarini rivojlantiradi.

Bayon yozishdan avval o'qilgan matnni qayta hikoyalash juda ham zarur.

Qayta hikoyalashning turi xilma-xildir. Har qanday qayta hikoya qilingan matn yuzasidan bayon yozish mumkin, lekin bayon yozish og'izaki qayta hikoyalashga nisbatan qiyin va murakkab faoliyatdir. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozish sur'ati sekin, shunga ko'ra bayon uchun kichik hajmdagi, kompozitsiyasi sodda, til tomonidan ham mos matn tanlanadi. Bayon matni asta-sekin murakkablashtira boriladi: avval hikoya tarzidagi bir lavhani ifodalovchi matn tanlansa, unga yana lavhalar, tasvir elementlari kiritila boriladi, qatnashuvchilar soni orttiriladi, muhokama elementlari ham qo'shiladi; keyinroq shaxsini o'zgartirib bayon yozishga o'tiladi. Shunday qilib bayon asta-sekin ijodiy tus oladi.<sup>1</sup>

Imloviy va punktiatsion qoidalarni tekshirish uchun aytib turib yozdiriladigan yozma ish diktantdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga diktant yozdirishda matn o'quvchilarning yoshiga va egallagan bilimlarining darajasiga mos bo'lishi kerak.

O'quvchilarning yozma nutqini oshirishda ta'limiy va tekshiruv diktant turlaridan o'z vaqtida samarali foydalanish muhimdir.

<sup>1</sup> "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" S.Matchonov, H.Bakiyev, X.G'ulomov, Sh.Yo'ldoshev, G.Xolboyeva. "Toshkent-2021" nashr 685-bet.

I. Ta'limiy diktant. Diktantning bu turi o'rganilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida yozuv darsining biror qismida o'tkazilib, unga alohida soat ajratilmaydi. Ta'limiy diktantlar tashkil etish va bajarilish usuliga ta'kidiy diktant, o'z diktant yoki yoddan yozuv diktanti, izohli diktant, saylanma diktant, erkin diktant, rasm diktant, lug'at diktant, ijodiy diktant kabi turlarga bo'linadi. Bulardan saylanma, erkin va ijodiy diktantlarda matn ma'lum o'zgarishlar bilan yoziladi.

II. Tekshiruv diktanti. Diktantning bu turida yaqinda yoki ilgari o'rganilib, mashqlar bilan mustahkamlangan qoidalarni o'quvchilar qay darajada o'zlashtirganliklari aniqlanadi. Tekshiruv diktanti biror bo'lim o'rganilgandan so'ng yoki chorak oxirida o'tkaziladi. Tekshiruv diktanti o'quv yili davomida 5-6 marta o'tkaziladi. Diktantning bu turida yo'l qo'yilgan xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tekshiruv diktantining ta'limiy ahamiyati katta.

Ta'kidlash lozimki dars davomida imloviy mashq sifatida diktantning turli shakllaridan foydalanib turish lozim. Ma'salan mashqlarni bajarishdan avval yozilishi qiyin va tushunarsiz bo'lgan so'zlarni ajratib olib sinf doskasida izohlarini va yozilishini o'rgatish uchun ta'kidiy diktantdan foydalaniladi.

O'z diktant yoki yoddan yozuv diktantida o'rganilgan imloviy qoida asosida yoziladigan so'zlar bo'lgan matnni o'quvchilar o'zlari o'qib yodlaydilar (ko'rib idrok qiladilar) yoki o'qituvchi rahbarligida eshitib yodlaydilar (idrok qiladilar), keyin o'zlari mustaqil yozadilar. Izohli diktant o'quvchilarning qobiliyatiga qarab ikki xil o'tkaziladi. O'quvchi, odatda, o'qituvchining ko'rsatmasi bilan ma'lum so'zning yozilishini diktant yozishdan oldin yoki keyin izohlaydi. So'zning yozilishini bo'g'in-tovush, tovush-harf tomondan tahlil qiladi, unga qoidani tatbiq etadi. Masalan, „Kitob — bilim manbai“ — Kitob: Ki-tob. Ikki bo'g'in. Birinchi bo'g'inida k, i; ikkinchi bo'g'inida t, o, b tovushlari bor. Oxirgi b tovushi p tovushi tarzida talaffuz qilinadi. Unda b yoki p tovushini ifodalovchi harfning yozilishini tekshirib aniqlaymiz. Buning uchun so'z oxiriga i tovushini qo'shamiz va aytamiz: kitobi. B tovushi yozilar ekan" kabi izohlanadi. Bu diktantda o'quvchilar qoidalarga oid so'zlarning tagiga chizadilar.<sup>2</sup>

O'rganilgan imloviy qoidalarni mustahkamlash va o'quvchilarning so'z boyligini oshirish maqsadida o'tkaziladigan diktant lug'at diktantdan foydalanish mumkin. Lug'at diktant uchun o'rganilgan mavzuning imloviy qoidalari bo'yicha so'zlar, so'z birikmalari shunday so'zlarni ifodalovchi so'z birikmalaridan foydalanish mumkin.

Saylanma diktantda o'quvchilar diktovka qilingan gaplar yoki matnning hammasini yozmaydilar. Uning o'qituvchining topshirig'iga mos qisminigina (o'rganilgan qoida asosida yoziladigan so'zlarni, so'z birikmalarini) yozadilar. Masalan, a harfi harf bilan yoziladigan so'zlarnig yozish (1 -sinf), qaratqich kelishigidagi so'zni u bog'langan ot bilan yoki tushum kelishigidagi so'zni u bog'langan fe'l bilan birga yozish (4-sinf) kabi. Saylanma diktant o'quvchilarda imloviy ziyraklikni o'stiradi. Erkin diktantda o'quvchilarga mazmuni buzmay, gap tuzilishini o'zgartirish, bir so'zni unga yaqin ma'noli so'z bilan almashtirish erkinligi beriladi. Diktant uchun 3-5 qismli matn tanlanadi. O'qituvchi avval matnni bir marta ifodali o'qib beradi, so'ngra matn

<sup>2</sup>“ SAVOD O'RGATISHDA DIKTANTNING AHAMIYATI VA DIKTANT TURLARI” Xudaynazarova Gulshoda Sadullayevna Nurullayeva Manzura Komilovna, “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 212-bet

mazmuni yuzasidan suhbat o'tkazadi. Ayrim qoidalarini eslatadi. Keyin matnning bir qismi qayta o'qib beriladi, o'quvchilar uning mazmunini yozadilar.

Erkin diktant imlo qoidalarini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan birga, o'quvchilar nutqini o'stiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Rasm diktant predmet rasmini yoki o'zini ko'rsatib o'tkaziladi: predmet rasmi ko'rsatiladi, o'quvchilar uning nomini aytadilar va yozib vergul qo'yadilar, ish shunday davom etadi (Birinchi so'z bosh harf bilan, qolganlari qoidaga ko'ra yozilishi eslatiladi). Rasm diktantda o'rganilgan qoidani, ayniqsa, o'quv yili davomida o'rganiladigan imlosi qiyin so'zlarni to'g'ri yozishni puxtalash, shuningdek, ularni o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklarini sinash maqsadi ko'zda tutiladi. O'qituvchi mazkur maqsaddan kelib chiqib, imloviy malakani shakllantirish ustida ishlash bosqichini hisobga olgan holda, diktantning barcha turlaridan izchillik bilan foydalanadi.<sup>3</sup>

Diktant yozish uchun tavsiyalar:

1. O'qituvchi tomonidan qanday mavzular bo'yicha nazorat diktanti yozilishi ma'lum qilingach, shu mavzularga oid imlo qoidalarini qayta o'rganib chiqish, talaffuz va imlo munosabatiga e'tibor qaratish lozim.

2. Darslikda mazkur mavzular bo'yicha berilgan til qurilishiga oid qoidalarini takrorlash va mustahkamlash talab etiladi.

3. O'qituvchi tomonidan diktant matni o'qilganda diqqat bilan tinglang va undagi asosiy mazmuni anglashga, matnning mazmuniy qismlarini va gaplarning chegarasini ajratib olishga harakat qiling.

4. Matndagi tinish belgilarining gap va uning qismlari ohangi bilan aloqadorligini esda tuting.<sup>4</sup>

### **Xulosa**

Insho biror mavzuni o'quvchi mustaqil ravishda yoritadigan yozma ish turlaridan biridir. Pedagog olimlarning fikricha insho-shaxsni shakllantirishda foydali o'quv vositasi bo'lib, u o'quvchida his-hayajon uyg'otadi va uni aqliy mustaqillikka yo'naltiradi, fikrlashiga, ko'rgan-kechirganlari hamda o'zlashtirganlarini baholashga, voqea hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishini topishga, ularni qiyoslashga va xulosa chiqarishga o'rgatadi. Shu jihatdan insho so'zi arabcha bo'lib, "yaratish", "bino qilish" va "boshlash" ma'nolarini anglatadi. Insho aniq reja asosida yoziladi va u quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- o'quvchining his-hayajon tuyg'usini (emotsiyani) o'stirish;
- o'quvchining aqlini (intelektni) rivojlantirish;
- o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish; - o'quvchining voqealik va hodisalarni baholash ko'nikmasini shakllantirish.<sup>5</sup>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

<sup>3</sup> "SAVOD O'RGATISHDA DIKTANTNING AHAMIYATI VA DIKTANT TURLARI" Xudaynazarova Gulshoda Sadullayevna Nurullayeva Manzura Komilovna, "Talqin va tadqiqotlar" ilmiy-uslubiy jurnali, 212-bet

<sup>4</sup> YOZMA ISH TURLARI: INSHO, BAYON, DIKTANT" O.Madayev, A.Sobirov, Z.Xolmanova, Sh.Toshmirzayeva, G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyeva, Toshkent "Turon zamin ziyo" 2017 94-bet.

<sup>5</sup> "BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INSHO VA BAYON IJODIY ISHI" Nodira Nazarqulovna Eshmanova, "ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES", 1592

1. “ SAVOD O’RGATISHDA DIKTANTNING AHAMIYATI VA DIKTANT TURLARI” Xudaynazarova Gulshoda Sadullayevna Nurullayeva Manzura Komilovna, “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 212-bet
2. “BOSHLANG’ICH TA’LIMDA INSHO VA BAYON IJODIY ISHI” Nodira Nazarqulovna Eshmanova, “ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES”, 1592
3. ”Boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitish metodikasi” S.Matchonov, H.Bakiyev, X.G’ulomov, Sh.Yo’ldoshev, G.Xolboyeva. ”Toshkent-2021” nashr 685-bet.
4. YOZMA ISH TURLARI: INSHO, BAYON, DIKTANT” O.Madayev, A.Sobirov, Z.Xolmanova, Sh.Toshmirzayeva, G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyeva, Toshkent “Turon zamin ziyo” 2017 94-bet.
5. Qizi, I. M. I. (2021). Mohlaroyim nodira's skill in using a satellite. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1048-1052.
6. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).
7. Otto, M., & Thornton, J. (2023). MAKTABGACHA INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 408-411.
8. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 121-123.
9. Musharrafxon, I., & Nigora, M. (2024). YOSH AVLODGA KITOBXONLIK KO ‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O‘RNI. *Kokand University Research Base*, 216-219.